

## **INGLIZ TILINI DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI**

*Raxmanova Dilnoza Toshmurzayevna*  
*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,*  
*chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada samarali o'quv jarayonini tashkil etish, uni zamonaviy o'quv materiallari va didaktik vositalari bilan jihozlash, talabalarning dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, ko'nikmalar va tushunchalarni shakllantirish orqali ularda jarayonlarni tushunish, muammolarni hal qilish va qarorlar qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish borasida fikrlar bayon qilingan. Shuningdek dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini rivojlantirishning asosiy maqsadi sifatida — talabalarga kundalik hayotda va professional faoliyatda samarali va ongli qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'rgatish lozimligi takidlangan.

**Kalit so'zlar:** Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish, qarorlar qabul qilish, kommunikatsiya va jamoada ishlash, didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlar.

**Abstract.** This article presents ideas on organizing an effective learning process, equipping it with modern educational materials and didactic tools, improving the methodology of teaching English to students using software tools, developing their understanding of processes, problem-solving and decision-making skills through the formation of skills and concepts. It is also emphasized that the main goal of developing the methodology of teaching English using software tools is to teach students the knowledge and skills necessary to make effective and informed decisions in everyday life and professional activities.

**Keywords:** Critical thinking and analysis, decision-making, communication and teamwork, didactic, psychological, economic, physiological groups.

**Аннотация.** В данной статье представлены идеи по организации эффективного учебного процесса, оснащению его современными учебными материалами и дидактическими инструментами, совершенствованию методики преподавания английского языка студентами с использованием программных средств, развитию их понимания процессов, навыков решения проблем и принятия решений посредством формирования навыков и концепций. Также подчеркивается, что главной целью разработки методики преподавания английского языка с использованием программных средств является обучение студентов знаниям и навыкам, необходимым для принятия эффективных и

обоснованных решений в повседневной жизни и профессиональной деятельности.

**Ключевые слова:** критическое мышление и анализ, принятие решений, коммуникация и командная работа, дидактические, психологические, экономические, физиологические группы.

**Kirish va mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda Mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etish borasida muayyan tajriba to'plangan bo'lsa-da, biroq, uni yanada boyitishga nisbatan ehtiyoj mavjud. I.A.Xajiyevaning fikriga ko'ra, dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini rivojlantirish jarayoni quyidagi elementlardan iborat bo'ladi:

Bilimlarni o'rgatish: talabalarga fanga oid tushunchalar haqida asosiy bilimlarni berish zarur. Buning orqali ular muhit va uning ishlash uslublari haqida ma'lumotga ega bo'ladilar.

Tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish: talabalar ma'lumotlarni tahlil qilish, turli iqtisodiy vaziyatlarni baholash, muammolarni aniqlash va ularga yechim topish ko'nikmalariga ega bo'lishlari kerak. Bu esa ularni kundalik hayotdagi iqtisodiy qarorlar yuzasidan ongli va puxta fikr yuritishga o'rgatadi.

Qarorlar qabul qilish: dasturiy vositalar yordamida ingliz tilini o'qitish metodikasini rivojlantirishda, talabalarga turli sharoitlar va resurslar chegaralangan vaziyatlarda qanday samarali qarorlar qabul qilishni o'rgatish muhimdir.

Ijodiy faoliyatning jamiyatga ta'siri: talabalarni qarorlarning jamiyatga, atrof-muhitga va barqarorlikka qanday ta'sir qilishini tushunishga o'rgatish. Bu orqali ular mas'uliyatli va barqaror faoliyatlarni amalga oshirishni o'rganadilar.

Kommunikatsiya va jamoada ishlash: talabalarga boshqalar bilan samarali ishlash, iqtisodiy muhokamalarni olib borish va o'z fikrlarini aniq ifodalash ko'nikmalarini o'rgatishni ham o'z ichiga oladi. Bu jamoada qarorlar qabul qilishda va muhokamalarda ishtirok etishda muhimdir.

Dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar tasnifi: didaktik talablar; pedagogika-psixologik talablar; ekrandagi tasvirlarning rangiga qoyiladigan talablar; yorqinlik talabi; ekrandagi ma'lumotlarning tuzilishiga qoyiladigan talablar; ekrandagi ob'ektlarning ko'rinishiga qo'yiladigan talablar; foydalanuvchi oynasining qulayligi. Dasturiy vositalar yaratishda texnik va ergonomik talablar Dasturning ommaviyligi; dastur ishining uzluksizligi; dastur hajmi; kompyuter imkoniyatlaridan unumli foydalanish; talaba va kompyuterning muloqot usullari; talaba uchun ortiqcha ma'lumotlarning berkitilishi; RDTning hissiy ta'sirchanligi; o'qituvchi va talaba vaqtini tejash kabi talablarni olish mumkin.

Dasturiy vosita yaratishning asosiy maqsadi va vazifalari — o'quv jarayonini samarali qo'llab-quvvatlash va yaxshilash, talabalarning bilim va ko'nikmalarini

rivojlantirish, o'qitish metodlarini modernizatsiya qilish va talabalarga interaktiv, shaxsiylashtirilgan o'rganish tajribasini taqdim etishdir. Dasturiy vosita, ayniqsa, raqamli ta'limda, o'qituvchilar va talabalar uchun qulayliklar yaratadi. Odatda, axborot vositalarini shakllantirish foydalanuvchi sub'yektlarning ehtiyojlarini hisobga olgan holda shu kunga qadar to'plangan va nazariy jihatdan olinadigan axborot vositalaridan foydalanib amalga oshadi. Insoniyat azaldan turli ixtisoslashtirilgan kutubxonalar, arxivlar va boshqa turdagi turli xil ma'lumot fondlarini shakllantiradi. Bugungi axborotlashtirish davrida, ushbu manbalar, axborot vositalari omborlari elektron shaklga o'tkaziladi, ya'ni ombordagi ma'lumotlar raqamlashtiriladi hamda ushbu ixtisoslashtirilgan ma'lumotlarni saqlash, qidirish va qayta ishlash uchun elektron axborot tizimlari yaratiladi.

Hozirgi raytda dasturlash texnologiyasining uskunaviy vositalarini yaratish bilan bog'liq yo'nalish tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Dasturiy vosita yaratishning asosiy maqsadi — talabalarni ta'lim jarayonida faollashtirish, ularning bilimlarini oshirish, shuningdek, o'qitishning samaradorligini yuqori darajaga ko'tarishdir. Bunda dastur, talabalarning o'qish uslublariga va ehtiyojlariga mos ravishda o'quv materiallarini taqdim etishi va baholashi kerak.

Dasturiy vositaning asosiy vazifalari:

Talabalarga bilim va ko'nikmalarni taqdim etish-Dasturiy vosita talabalarga yangi bilimlarni o'rganishga yordam berishi, nazariy va amaliy topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlashi kerak. Har xil interaktiv o'yinlar, simulyatsiyalar, testlar va vazifalar orqali talabalarni mashq qilish va o'rganish jarayoniga jalb qilish.

Shaxsiylashtirilgan o'rganishni ta'minlash-talabalarning individual ehtiyojlariga va tayyorgarlik darajasiga qarab dasturda turli darajadagi vazifalar va mashqlarni taklif qilish. Buning orqali talabalar o'z sur'atida o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Talabalarni o'zlarini mustaqil rivojlantirishga undash, ularning o'z-o'zini baholash va o'zlashtirish darajasini kuzatish.

O'quv jarayonini interaktiv qilish-talabalarning faolligini oshirish uchun interaktiv elementlardan, masalan, video, animatsiya, o'yinlar, masalalar va simulyatsiyalardan foydalanish. Savollar, tahlil qilish, o'yinlar va testlar orqali talabalarni o'z bilimlarini sinovdan o'tkazishga, o'rgangan narsalarini amalga qo'llashga rag'batlantirish. Dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi. Dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an'anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi. Dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya,

informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o'quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta'minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o'rganilgan bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

**Xulosalar.** Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda va o'quv jarayoni sifatini oshirishda talabalarning ijodiy faoliyat yuritishi va ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim jarayoni alohida o'rin tutadi. Sababi "o'z mehnati bilan olingan bilim juda katta qiymatga ega. Shunday qilib, o'qitishning muvaffaqiyati talabalarning bilim olishga bo'lgan munosabati, bilim olishga intilishi, bilim, ko'nikmalarni ongli ravishda va mustaqil ravishda o'zlashtirishi bilan belgilanadi".

#### **Adabiyotlar:**

1.Рахмонова Д. Коммуникативная компетентность как основная цель обучения английскому языку как второму иностранному //in Library. – 2024. – Т. 2. – №. 2. – С. 168-172.

3.Toshmirzaevna R. D. XORIJIY TILDA MUSTAQIL FIKRLASHDA TARG'IBOT VOSITASINING VAZIFALARI VA O'RNI //International Conference. – 2024. – Т. 1. – №. 9. – С. 33-35.

4.Toshmirzaevna R. D. ISHLAB CHIQRISH VA ISTE'MOL DARAJASINING ORTISHI JARAYONIDA XORIJIY TILLARNING AHAMIYATI //International Conference. – 2024. – Т. 1. – №. 9. – С. 36-40.

5. Rakhmonova D.T. Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida ped texnologiyalar vositasida aralash ta'limning afzalligi va ahamiyati//Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotlari 2024, 12-son

6. Rahmonova Dilnoza Toshmirzayevna DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASI // ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Часть-49 Том-2 июль-2025

7. Rahmonova Dilnoza Toshmirzayevna DASTURIY VOSITALAR YORDAMIDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING PEDAGOGIK MUAMMOLARI VA TANLILI// ЛУЧШИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Часть-49 Том-2 июль-2025